

AVLIYOLAR QUDRATI, “QUDSIYA” RISOLASI VA QUR’ONNI ZIKR ETISH TARTIBI XUSUSIDA

Bobokalonov Ramazon Rajabovich

Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori

e-mail : boboramazon@mail.ru +998905101225

Dilfuza Narzullaeva Bafoevna

Buxoro davlat universiteti fransuz filologiyasi kafedrasi o'qituvchisi

e-mail: d.b.narzullayeva@buxdu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada Hazrat Xoja Muhammad Bahouddinning avliyolik qudrati, u kishiga bag'ishlangan Xoja Muhammad Porsoning « Qudsiya » risolasi tavsulotlari va uning tarkibidagi ilmiy-irfoniy atamalarning semantik ma'nolari, shuningdek, Qur'oni Karimning avliyolar tomonidan zikr etish qoidalari haqida yangi ma'lumotlar jamlangan.

Kalit so'zlar: avliyolik qudrati, « Qudsiya » risolasi, ilmiy-irfoniy atamalar, zikr tushunchasi, xufya zikri, zikri zamон.

K I R I S H

Hazrat eshon nomi bilan mashhur bo'lgan Xoja Bahouddin islom olamida g'ariblarga najotkor, mo'min-muslimlarga Alloh yo'llini yoritib berishda cho'lpon bo'lib xizmat qilgan taniqli din arbobi bo'lgan. U kishini o'z davrida islom olamida Xojagon tariqatining ulug' so'fiylaridan, shu bilan bir qatorda naqshbandiya tariqqati asoschisi, shayx-ul-islom deb tan olishgan. SHunday buyuk shaxs haqida o'z zamonasida risola yozish mas'uliyati juda og'ir edi. Risolani yozish vazifasi o'z zamonasining taniqli namoyandalaridan biri – Hazrat eshon bilan elkadosh va maslakdosh bo'lgan zo'r iste'dod egasi, naqshbandiya tariqati ahli o'rtasida obro'-e'tibor qozonib ulgurgan, u kishining eng zabardast shogirdi Xoja Muhammad Porsoga nasib qilgan edi. Darhaqiqat, Hazrat Xoja Alouddin Attor topshirig'iga binoan Xoja Muhammad Porso bu vazifani amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi va ushbu risola "Qudsiya" deb nomlandi.

“Qudsiya” so'zining ma'nosi “pokizalik, soflik, ruhiy poklik haqidagi muqaddas va tabarruk kalom” ekanligi [1; 2; 4], uning muallifi Xoja Muhammad Porso Hazrat Xoja Bahouddin Naqshbandning kuyovlari Xoja Alouddin Attor topshirig'iga binoan mazkur risolasini yozishga musharraf bo'lganligi haqida naqshbandiya tariqati oriflariga ma'lum [3]. Biz uni o'zbek tiliga o'girgan mutarjim sifatida qiziqishlarimiz doirasida ana shu risolaga murojaat qilishni lozim topdik. Zero, ushbu hujjat ayni zamonda islomiy bag'rikenglik, diniy barkamollik uchun xizmat qilishi tayin, albatta.

Xoja Muhammad Porso Hazrat Xoja Bahouddinning eng zakovatli shogirdi, mashaqqatlarda elkadosh va maslakdosh bo'lgan zamonasining zo'r iste'dodli va tariqat ahli o'rtasida obro'-e'tiborli etuk ulamosi edi. Muallif o'z risolasida u kishini islom olamida mashhur bo'lgan Xojagon tariqatining ulug' so'fiylaridan deb tilga oladi va ko'p o'rirlarda u kishiga nisbatan "Xoja Porso" so'zlarini hurmat nuqtai



nazaridan qo'llaydi. Xoja Muhammad Porso "Qudsiya" risolasida Xoja Bahouddinning diniy qarashlari, Komil Inson darajasidagi ulug' fazilatlari, umumislomiy g'oyalari, pandu nasihatlari, diniy arkomga mansub shaxs ekanligini ta'riflaydi.

Risolada piri komil Bahouddin Naqshbandiyning umumislomiy g'oyalari, xislat va fazilatlari, diniy irfoniy qarashlari, diniy arkomga mansublik darojoti o'z aksini topgan. Risola chuqur diniy-ilmiy mazmun va "Qur'on" oyatlari bilan asoslab boyitilgan. "Qudsiya" so'zining ma'nosi "pokizalik, soflik, ruhiy poklik haqidagi muqaddas va tabarruk kalomlar" ma'nosini bildiradi. Demakki, bu risola Xoja Bahouddin Naqshbandning so'fiylik ta'limoti haqida ma'lumot beruvchi muhim qo'lyozma hisoblanadi.

Risola yaqinda Ibrohim Naqqosh (Ibrohim Xo'jaev)ning "Risolahoi piron va payravoni tariqati naqshbandiya" kitobidan tojik tilidan o'zbek tiliga o'girishga erishildi va respublika hamda xalqaro maydonda alohida nashr etildi [1 ; 2]. Bu hujjat diniy barkamolligimizni namoyon etishda muhim ahamiyatga molikdir.

METOD VA TAHLILLAR

Naqshbandiya tariqatida, eng avvalo, inson dil pokligiga intiladi. Bu tariqatning afzal jihatidir. Xoja Porso talqini bilan e'tirof etganda, "mo'min-musulmon dil qa'ri ag'yor zahmatidan xoli bo'lsin" uchun Allohga talpinadi. Risolada ko'pgina hikoyatlar va voqealar haqida bayon qilingan. Hazrat Xoja Bahouddin Naqshband tillaridan u kishining hamrohi Muhammadzohid o'rtasida bo'lib o'tgan hayratlanarli voqelik aynan shunday bayon qilingan:

"Bir paytlar Muhammadzohid sodiq darvish edi, musofirlikdan qaytib sahroni kezib yurardik va qo'limizda tesha bor edi, kutilmagan holat bo'ldi. Teshalarni tashladik va yuzimizni o'sha cho'lga qarshi burdik va bir-birimizga shunday so'zlar aytdik, to o'sha aytgan gaplar shu ergacha etib keldi: ubbudiyat (bandalik, toat-ibodat) va fido haqida bo'lgan edi. U aytdi:

- Fidoning hadi (chegarasi) nimagacha (qaergacha)dir?

Aytdim:

- To shungachadirkim, agar darveshga: "O'lising kerak joy - shu" desalar, filhol o'lib qoladi.

SHu paytda menga boshqa sifat aytish mumkin bo'lmadi, Muhammadzohidga yuzlandim va aytdim: "O'l!"

- Filhol yiqildi va o'ldi va muddat o'lik sifatga ko'chdi. Tana er yuzasida ruh ajralishga tushgan edi va yuz osmonda va oyoq qibla tarafda, qizg'in kunning yarmidakim, havo juda issiq edi va quyosh Mezon burchida edi. O'sha sifatda men hayratga tushdim va ko'p ajablandim. O'sha erga yaqin joyda soya bor edi, o'sha soyada jon saqlab o'tirdim. Va yana zdullik bilan uning oldiga keldim va uning yuziga qaradim. Uning rangi ro'yi havoning issiqligidan qop-qora va o'likka aylangan edi. Birdan shu holatda mening qalbimga ilhom jo'sh urdikim: "Muhammadzohid, tiril" deb yubordim. SHu kalimani uch marotaba aytdim, hayot asari unga zohid bo'la boshladi va uning tanasida harakat paydo bo'la boshladi va shu soatda tirildi va asl holiga qaytdi.



Sayid Amir Kulolning xizmatiga qaytdik va shu qissani u kishiga bayon qildim. Qissaning asnosida aytdim:

- Ruh uning tanasidan muforiqat qildi (ajraldi, tashlab chiqdi) va men mutaxayyir (hayron) bo'ldim.

Amir buyurdilar:

- Ey farzand, nega o'sha holatda (darhol) "tiril" deb aytmading?

- Aytdim. YUragimda to o'sha ilhomdan etib kelganidan keyin shunday aytdimki, u o'z holiga qaytdi" (SHoh Naqshband kalomining oxiri).

Tahqiq ahli (ilm ahli) aytdilar: "Vaqti bo'ladiki, solikning Jalolu Jamoli ikki sifati parvarishi zotiy muhabbatga etadi. Va zotiy muhabbatga erishishning alomatlaridan biri shudirkim, mahbubning muqobil sifoti jihoti hamchu: solikning e'zozu izmol (azizu xor) va naf'u zarari yakson bo'ladi." [1; 2; 4]

Bundan anglashiladiki, Alloh xalqqa avliyosifat insonlarni etkazib turadi. "Va quyida tahqiq ahli aytdilar: YU'ti-l-Haqq subhonahu va taolo, al-mahbubi man avliyoysi fī-d-dunyo avvala mo yu'tā ahla-l-jannati va huva qavlusu "xun fa yakunu" va tilka-l-kalimatu-l-irodati-l-kulliyah" (ya'ni: "Haq taolo dunyoda avval do'stni o'z avliyolaridan beradi, o'sha narsanikim oxiratda ahli jannatga beradi va o'sha "kun fa yakun"nikim, buni aytgan Alloh taolo bo'ladi va bu kalima kulliy iroda sifatidir.)" [1; 2; 4].

Чун чунин хоҳӣ, Худо бидҳад чунин,

Медиҳад Ҳақ орзуи муттақин.

"Кона лиллах" будай дар мо мазо¹,

То ки "коналлоҳу лаҳ" омад ҷазо.

She'riy parcha tarjimasi:

Dildan ista, Xudo berar begumon,

Muttaqin uchun berar Haq orzumon.

"Kona lillah" bundan avvali mazo,

Toki "konallohu lah" keldi jazo (tarj. B.R.).

Bu erda "jazo" so'zida "man kona lillah konallohu lahu", ya'ni har kim Alloh uchun bor, Alloh u uchun bor, hadisiga ishora bor. [6]

¹ Мазо – ўтди. Мо мазо – бизгача нималарким бўлиб ўтмади.



Xoja Muhammad Porso izohlaydi: “Ammo u ma’rifat kamoli va adab iqtizosi (xohish, istak) kamoliga erishsinkim, o’sha mahbub valiy o’z irodatini Haq subhonahu va taoloning tobe irodatiga aylantirsin va Haqqa o’zining tobe irodatini yasamasin va uni tanisinkim, u Hazrat balkim taba’iyat²ga aloqador. Va bu sifat unga zuhur qilinsa, undan beixtiyor bo’lsa, ya’ni asliyatda *imtino’ ko’rinsin*”, ya’ni biron narsani o’ziniki qilib ko’rsatmasin.

Bayt:

Авлиёро хост қудрат аз Илох,

Тири часта бозгардонанд зи роҳ.

Tarjima:

Avliyolar qudrati - Ilohiy ne’mat,

O’jni ortga qaytarish ham ularga ziynat (tarj. B.R.).

Xoja Muhammad Porso ta’kidlaydi: “Zuhur vaqtida avliyoulloh “Isavilo-l-mashhad” sifati misolidadir. YA’ni, eshonning o’sha martabada hayotguzaronlik qilishi Iso ruhoniysi vositasida bo’lganidandir...”.

Sulton-ul-orifin Abuyazid, qaddasallohu taolo sirahu, uning muborak qadami (oyog’i) ostida cho’moli qolib yanchildi. CHo’molining o’ldirib qo’yanidan mutaallimu (g’amgin, ayanchli) mutaassir (ta’sirchan) bo’ldi. Uning qalbida ilhom jo’shdikim, “o’sha cho’molya nafas solsam”. Unga nafas soldi. CHo’moli tirildi. O’sha holatda Abuyazid “Isaviyu-l-mashhad” edilar.

Xoja Muhammad Porso ta’kidlaydi: “Avliyolarning komillari haqiqiya nuridan tom nasibdirlarkim, zotiy sifatdandir va insoniyatning salima fitrat³ida uning aksi toblangandir. Eshondek, tahorat fitratidandirlar va tabiat zulumotiyu bashariyat sifotidankim, o’sha fitratni aks toptiruvchilaridirlar, xalos bo’lganlar. Va eshon kabi hayot ummonida haqiqiya nuriga egadirlar, bu nur botinda va iste’dodda va xavotiru niyatda va tariq (yo’l) farosatida xalqning maxfiya amaliyu ahvolida bo’ladilar. Va hayot mutolaasiyu yomon avzo’idan, o’sha maxfiya ma’nosini idrok etadilar. Va boshqa jihatdan bu haqiqiy hayot nuridirkim, Ilohiy nundir, musta’id toliblar qalbini tiriltiradi. Va o’sha haqiqiya hayotida tirilish hissiya hayotiga umrguzaronlik qilishdan sharifroqdir. Ammo haqiqiya hayotida tiriltirish va hissiy ehyo⁴ mazhari bo’lish avliyoulloh va xalq o’rtasida azimroqdir.

Bahouddin Naqshband aytadilar: “Xalqdan uzoqlashganlarning bari o’shandankim, o’zlarini (xalqdan) uzoq tutarlar va o’z xohishlari bilan o’zlarining yuklarini tarozuga solarlar, v-agarna Ilohiy bu fayzda qusur yo’q”. YA’ni bunday anglashiladiki, xalqqa qayishib, Allohn ni qalban zikr qilishda hech qanday ziyon yo’qdir.

Bayt:

² ТАБАЪИЯТ a. تبعیت тобе, пайрав.

³ ФИТРАТ I a. فطرت 1. яралиш, хилқат. 2. табиат, сифат ва инсоннинг табиий хислати; хулқ. 3. ақл, заковат.

⁴ ЭХЁ a. احیا 1. қайтадан тирилтириш, хаёт бағишлиш. 2. тирилиш.



Qurbi Haq durii tust az budi xesh,

Be ziyoni xud nayobī sudi xesh.

Tarjima:

Haq qurbi – bo'lgin, xalq bor-budidan uzoq,

Ziyon ko'rmasang, xalq qalbiga darmon yo'q (tarj. B.R.).

Xoja Muhammad Porso ta'kidlaydi: "Masalan aytadilar, Eshon ma'rifat ahlidandirlar, yo muomala ahlidandirlar, yo muhabbat ahlidandirlar, yo tawhid ahlidandirlar. Va avliyoning kamoli hol va erishgan darajasi besifotinu benishonlikdan dedilar. Besifotinlari⁵ zotiy tarafga ishoradirkim, maqomi etarlicha balanddir va darajalari etarlicha sharifdir" [1 ; 2]. Naqshbandiya tariqatidan ma'lumki, har bir mo'min-musulmon, eng avvalo, Alloh yo'lida dil pokligiga intilishi shart. Bu sa'y-harakat shu tariqatning afzal jihatidan dadolat beruvchi alohida amaldir. Mo'min-musulmonning qalbida Allohdan o'zga uchun joy yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Xoja Muhammad Porso fikricha, "Qalb" deb nomlangan bo'shliqni Alloh nomi - "lo iloha illolloh"ni zikr etish bilan to'ldirish naqshbandiya tariqati da'vatlaridandir. SHu o'rinda Hazrat Xoja Bahouddin Naqshbandiy inson qalbini Ka'batullohga tenglashtiradilar. "Dil ba yor" - ya'ni Inson qalbi Allohnинг uyi deb baholanadi. Butun Olamga sig'magan Alloh Inson qalbiga sig'a olishiga mo'min-musulmonlarni iqror qiladi: "SHunday darajada dil qa'ri ag'yor zahmatidan xoli bo'lsin, "lo yasa'uniy va lo samoyi va lokin yasa'uniy qalbu abdi-l-mo'min" (ya'ni: meni eru osmon sig'dirmaydi, lekin mo'min bandaning yuragi sig'diradi) va "kullu shay-in holiqu illo vajhahu" (ya'ni: Allohga qo'shib boshqa "iloh"ga iltijo qilmang! Undan o'zga iloh yo'qdir. Uning "yuzi"dan boshqa barcha narsa halok bo'lguvchidir. Hukm Unikidir va (barchangiz) Uning huzurigagina qaytarilursiz" [5]. xosiyati oshkor bo'lsin va ruh zikri uning mujudi zikri bilan "azkurkum" nomutanoziyah bahrida mustahiq (sazovor) aylasin.

Ruboiy:

Зикр кун, зикр то туро чон аст,

Поки дил зи зикри Раҳмон аст.

Чун ту фориг шавй зи зикр ба зикр,

Зикри хуфя, ки гуфтаанд, он аст. Ya'ni :

Zikr qil, zikrkim to senga jondir,

Dil poklash, bu zikri Rahmondir.

CHun forig' bo'lsang zikrdanzikrga,

Xufya zikri, zikri zamondir" (tarj. B.R.).

⁵ Бесифотин – баданд, тенгсиз сифат маъносида.



Zikr etish shunchaki, ko'r-ko'rona e'tiqod emas, balki "Qur'on"ni o'rganish bilan bog'liqdir. "Qur'on"ni o'rganib unga amal qilish faqatgina bir necha taqvodorning ishi bo'lmay, farzu sunnatlarni amalga oshirgan har bir insonning kundalik mashg'ulotiga aylanmog'i kerakligini uqtiradi. Demak, "Qur'on"ni o'qish, o'rganish, tilovat qilish, unga amal qilish odam tanlamaydi. Islom dini – shu bilan afzaldir. "Qur'on"ni o'rganish shunchaki emas, uni zikr qilish lozimdir. Zikr qilish, bu: "yodkard, bozgasht, nigahdosht va yoddosht", ya'ni "yodladi, yodga joyladi, eslab qoldi va esda saqladi." Bundan: "Maqsad lisoniy (til) va qalbiy zikrni eslab qolishdadirkim, xotir murokabasidir va yodga saqlashdirkim, mushohida va foniylar bo'lish va xufya zikridir, ya'ni: zikr o'sha zikrdirkim, xufya bo'lsin, alalhaqiqat. Va lisoniyu qalbiy zikr "alif" va "bo" ta'lim manzalasidandir, toki uning o'qish malakasini hosil qilsin."

Muhammad Porso eslaydi: "Hazrat Hojamiz, qaddasallohu taolo sirrahu, "azkurkum" ma'nosida buyurdilar...: *til zikri va dil zikri va ruh zikri va sir zikri va xafyi zikri*. Dil ruhoniy va jismoniy olam o'rtasidagi vositadir. Va ruh olami dil va sir o'rtasidagi vositadir. Va sir martabasi ahlulloh (Alloh ahli) toifasiga yaqin olib boruvchi ruh va qalb martabasidir. Va qalb martabasi huzuriga olib boruvchi va ruh martabasidan uzoqlashuvchi toifadandir. Va haqiqatda sir ruhu dilning ayni (o'zi)dir. Maqom nihoyatida har bir (kishi) o'z maqomida mutajalli aylasin va g'ayriyat vasfida muttasif bo'lsin. Va g'ayriyat sifati biron kishining nisbatida sir bo'lsakim, unga dilu ruh nihoyatikim, zikr qilingan bo'lsa, (yana oxiriga) etmay qolgan bo'lsin." CHunonchi, "Qudsya"da ta'riflanishicha, SHayx SHihobuddin Suxravardiy deganlar: "... Qur'on tilovatiga doim farzu sunnatlarni amalga oshirishdan keyin ijebatdir". YA'ni mo'min-musulmonga islom amallarini - farzu sunnatlarini bajarganidan keyin Qur'on tilovatiga o'tishi buyuriladi. Zero, Kubarolardan biri aytadilar: "Ikki odil shohid shahodati - Kitob (Qur'on) va Sunnatdir, boshqasini qabul qilmayman".

Hazrat Xoja Imom Muhammad ibn Aliy Hakim Termizi, qaddasallohu taolo sirrahu-l-aziz, So'fiyon Savriy (raz)dan naql qilib aytganlar: "Eshitdikki, Qur'on tilovati zikrdan afzaldir. Va bu gaplarni aytguvchi nima yaxshi g'avvoslik qildi? O'sha uchunki Haq subhonahu va taoloning o'zining kalomidan Haqni zikr qilish fozilroq bo'lsin uchun."

Xoja Porso bundan xulosa chiqarib aytadi: "Haqiqatdakim, Qur'on o'sha zamonda nozil bo'lib, bandalar ichida maxluq aylanmagandir va xalq qo'liga olsa va u (aslo) chirkin bo'lmaydi. So'ngra, uning tozaliku xushbo'ylik va pokligi o'zinikidir. Va uning o'z yopinchig'i bordir, ya'ni qudratli nurikim, Mutaqallim janoblariga loiqu sazovordir. Va u mutaqallim Allohdir. Va zikr bu shunday zikrki, banda intiqib o'z qalbi tufayli (Uni zikr) qiladi; Qur'on qisvati uchun emas, o'z Rabisini o'zidan ogoh etishlik uchun".

Xoja Porso ta'kidlaydi: "Kimki Qur'on ma'nisini bilmasa, ammo dil o'qishga hozir tursa va to uning nafs hadisi uni har tarafga olib borib tinch qo'ymasa va dilni ta'zimu tavqir nuriga pok saqlasın. Va uning dilida Qur'on azamati hozir bo'ladiki, Alloh so'zi, azza va jalla va uning sifatidir va qadim (aziz)dir. Agar bu harfining (Qur'onning) haqiqiy ma'nosi oshkor bo'lsa edi, etti osmonu etti zamin o'z jilosiga ega bo'lmasdi" (YA'ni Qur'oni Karimning tag-tub ma'nosiga aslo etib bo'lmaydi).

Xoja Porso Imom Ahmad Hambaldan rivoyat keltirib aytadilar: "Allohnin, azza va jallani uyquda ko'rdim. Aytdim:

- YO Rab, ... Sen nima narsaga fozilroq?

Aytdi:



- Qur'on - O'z kalomimga.

Aytdim:

- Agar ma'no fahmlasa va agar yo'q? (Undan ma'no anglamasachi?)

Aytdi:

- Agar fahmlasa va agar yo'q (agar Qur'oni fahmlasa, bu yaxshi va fahmlamasa – yomon)." Demak, anglab emas, Qur'oni fahmlab o'qish lozimdir.

Xoja Porso kubarolardan birining fikrini izohlab, yana misol keltiradi: "Kimki, dori ichsa va bilmasinki, nima ichayapti, asar qilsin. Qur'oni shunday asar qilsin. Va Qur'ondag'i har bir harf tog' manzarasidir, bashariyat mujudida voqe' bo'ladi, uni fano qiladi (o'qib tamom qiladi) va uning osorini (o'z nobop fikrlarini) daf' qiladi. Va Qur'on nuri mo'min dilidagi nurga jam' bo'lsa, nuroniyat ziyoda bo'ladi va bashariyat vujudi ko'proq parokanda bo'ladi".

Xoja Porso: "Mo'min-musulmon "Qur'on"ning qaysi oyatlarini kechqurun o'qishi ma'qul?" degan savolga Hakim Termiziyning: "Kechqurun Qur'on tilovatida jumlaning vazifasi "Fotiha", "Kofirun", "Ixlos", "Falak", "Nos" suralari va "Hashr" xotima surasi va "Baqara" xotima surasidir va "YOsin" vazifa jumlasidir", degan izohini tamsil keltiradi. U tun holatida yana Hazrat Azizon Ali Romitaniy, qaddasallohu taolo ro'hahu, fikrlarini ta'kidlaydi: "Har doim uch dil jam' bo'ladi, mu'minni bog'lab turadigan: ***Qur'on dili, bandai mo'min dili va tun (kechqurun) dili***".

XULOSA

Xoja Porso zikr qilishda Hazrat eshonning mashoyix silsilasi Imom Rabboniy Xoja Abuya'qub YUsuf ibn Hamadoniya bog'lanishini eslatadi.

Yusuf ibn Hamadoni shunday deganlar: "Tolib shunday bo'lsinki, tunu kun "lo iloha illalloh" kalimasini g'arq bo'lib takrorlasin. Uyqu va bedorlikni shuning zikriga nafaqa qilsin. Namozlari navofilida va zikru tasbihlarga qo'l ursun va bu kalimaga iqtisor qilsin. Qaerdaki, laduniy ilmiyu Ilohiy hikmat bo'lsa, nafl xizmati zahmat bo'ladi. Na har kecha kunduz, balki har soatu lahza tushunsinki, "lo iloha illalloh"da musalmon nuri bordir. Har nimadan "lo iloha illalloh" bo'lakchadir, illo farzu sunnat namozi kulliyga tabarro qilsin. Va koinotning kulliy andeshasidan xokisor yursin va hamma holatu soatda "lo iloha illalloh" zikrida taalluq olsin."

Hakim Termiziy buyuradilar: "Kimki iymon davlatining davomini talab qilsa, albattakim har bir ishdayu uning har holatida "lo iloha illalloh"ni aytish odati bo'lsin va bu kalima bilan xafyi shirk (inkor) zulmatini o'zidan juda ham uzoqlashtiradi va iymon nuri zuhurini o'z diliga toza saqlaydi. Hamchunin, Abuhurayra (raz) dan shunday rivoyat borki, aytdi: «Rasululloh (s) buyurdilar:

-O'z iymoningizni tozalang.

Aytildi:

- YO Alloh Rasuli (s) qanday qilib o'z iymonimizni tozalaylik?



Buyurdilar:

- «Lo iloha illalloh»-ni ko'p ayting».

Xoja Porso yozadi: "...Tamkin⁶ ahli o'rtasida Hazrat Eshon botiniy ahvolda o'zлari g'olibdirlar va mutasarruf qila oladilar. Va bu toifa ahlullohdan aytganlarki: "Maqsad yukni kamaytirish, engillashtirishdan iboratdir, bu gap Rububiyat (Allohdan qo'rqish) lutfi vaqtida eshonda bo'lган ekan... Bu qilingan ibodatlarning bari Alloh zikri uchundir... "Lo iloha ilalloh" kalimasi musalmonlik aslidir va boshqa barcha ibodatlarning ta'kidi shunda zikrdir. Va namoz ruhi Haq subhonahu va taolo, zikrini qalbda, haybatu ta'lim sabilida tozalab olishdir. Va ro'zadan maqsad shahvatni sindirishdir, to yurak shahvat zahmatidan xalos topsin, (unda) soflik bo'lsin va zikr qarorgohiga aylansin. Va hajdan maqsud Allohnning uyi zikridir va Uning liqosiga shavq. Va tarki dunyoyu tarki dunyo shahavoti va tarqi ma'osiy (yolg'on, uydurma) zikrning farog'ati uchundir. Bas, maqsad zikrning amru nahi (yomonlikdan qaytarish)dan iboratdir".

Xulosa qilib aytganda, "Qudsiya" risolasi diniy bag'rikenglik, soflik, ruhiy poklikka erishishda ma'naviy boylik bo'lib xizmat qiladi. SHuningdek, bu risola o'tmishimizning ochilmagan qirralarini bilishimizga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bobokalonov R.R. Xoja Porso. "Qudsiya" risolasi, « Durdona » nashriyoti, Buxoro -2018. 3-124 b.
2. Bobokalonov R.R. Xoja Muhammad Porso "Qudsiya" risolasi va hayotnomasi. Ilmiy risola tarjimasি, GlobEdite. Republic of Maldova, Europe printed, 2023. Pages 3-123. ISBN: 978-3-639-73461-4
3. Bobokalonov R.R. Vobkent: Buyuk Ipak yo'li chorrahasi. Ilmiy-ommabop risola. GlobEdite. Republic of Maldova, Europe printed, 2021. Pages 3-187. ISBN: 978-620-0-63206-7 (Hammualif: Sultonmurod Olim).
4. "Рисолаҳои пиҳон ва пайравони тариқати нақшбандия"/"Құдсия". Душанбе, 2017.
5. Qur'oni Karim, Qasas surasi, 88-oyat.
6. "Шархи чомеи Маснавӣ". Ҷилди аввал. –Хуҷанд: Ношир, 2013. S. 602.
7. Bobokalonov R.R., Raupova R.S. Xoja Ismat Buxoriyning falsafiy-tasavvufiy qarashlari. O'quv qo'llanma, « Adabiyot uchqunlari» nashriyoti. Toshkent, 2017. 3-137 b.
8. Bobokalonov R.R. Xoja Ismati Buxoriy. Devon, To'plam, Dushanbe, "Iste'dod", 2021. 27 b.t.
9. Bobokalonov R.R. Mon doux village. Symphonie des peupliers de la mère patrie (Passé, vérité et légendes). Editions Muse, Republic of Maldova, Europe printed, 2021. Pages 3-57. ISBN: 978-620-3-86648-3. 3 b.t.

⁶ ТАМКИН а. تمکین 1. виқор, вазминлик, ўз ва ўзгалар қадр-қимматини ҳимоя қилиш; 2. жой бериш, ўрин ажратиш.



10. Bobokalonov R.R. My sweet village. Editions Muse, Republic of Maldova Europe printed, 2021. Pages 3-57. ISBN: 978-620-4-73230-5. 3 b.t.
11. Narzullayeva, Dilfuza. "VOCABULARY OF THE QUR'AN IN THE OBJECT OF THEOLINGUISTICS." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 35.35 (2023).
12. Bafoyevna, Narzullayeva Dilfuza. "Teolingvistik Terminlarning Qo'llanilish Uslublari." Miasto Przyszłości 36 (2023): 73-76.
13. Bafoevna, Narzullaeva Dilfuza. "Discours Des Traductions Du Coran." Best Journal of Innovation in Science, Research and Development 2.5 (2023): 315-319.
14. Narzullaeva, Dilfuza. "PROBLEMS ENCOUNTERED DURING THE TRANSLATION OF THE QURAN." *Models and methods in modern science* 2.14 (2023): 28-32.
15. Narzullayeva, Dilfuza. "ИСТОРИЯ ТЕОЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 35.35 (2023).

